



Abdimannobova Sevara Abdiqaxxor qizi

Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi mas'ul xodimi

KONSTITUTSIYA VA QONUNLARNING USTUVROLIGI – HUQUQIY DAVLAT PRINSIPI SIFATIDA

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada huquqiy davlat tushunchasi, huquqiy davlat to'g'risidagi ta'limotning vujudga kelishi va taraqqiyot bosqichlari, huquqiy davlat ta'limotining tarixiy-nazariy manbalari o'rganildi, huquqiy davlat prinsiplarining mazmun-mohiyati tahlil qilinib, O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalalari tahlil qilindi. Bundan tashqari Konstitutsiya va Qonunlar ustuvorligi, fuqarolarning huquqlarini, erkinlik va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida mamlakatimizda bugungi kunda amalga oshirilayotgan izlohotlar yoritib berildi, shuningdek, maqolada huquq ustuvorligi indeksini yaxshilash, huquqiy ong va madaniyatning shakllanish, Qonun ustuvorligi sohasidagi muammolarga samarali yechim topish usullari o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: huquqiy davlat, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, huquq ustuvorligi indeksi, qonun ustuvorligi, huquqiy davlat prinsipi, huquqiy ong, huquqiy ma'daniyat, huquqiy negilizm.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, hozirgi vaqtga qadar O'zbekistonda huquqiy demokratik davlatni shakllantirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ayniqsa, inson huquqlari, erkinlik va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, ularning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ekologik huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan bir qator Qonunlar qabul qilinib, amalda qo'llanilmoqda. Chunki huquqiy davlatni barqarorlashtirishda avvalo inson huquqlarining himoya qilinishi uning belgisi sifatida tayanch vazifani bajaradi. Umuman olganda huquqiy davlatni shakllantirishda inson huquq va erkinliklarining davlat manfaatlaridan ustuvorligi, huquqning qonundan ustunligi va qonunlarning mamlakat Asosiy Qonuniga zid kelishiga yo'l qo'yilmasligi, hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi, sudlarning mustaqilligi, odil sudlovga bo'lgan huquqning ta'minlanishi, korrupsiyaga yo'l qo'yilmasligi, adolatli davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish, xalq bilan muloqotning mexanizmlarini takomillashtirish, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish, davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish, sud va boshqa organlar hujjatlarining o'z vaqtida va to'liq ijrosini ta'minlash, fuqarolar o'rtasida qonunga



hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish bilan bog‘liq muammolarning ilmiy yechimini topish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy davlat ta‘limotini ilmiy-nazariy tadqiq etgan olimlardan J.Lokk, Sh.L.Monteske, I.Kant, G.Gegelni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Mazkur olimlarning asarlarida huquqiy davlat to‘g‘risida bir qancha ilmiy fikrlar va xulosalar ishlab chiqilgan va bu qarashlar davlat va huquq nazariyasiga o‘ziga xos hissa bo‘lib qo‘shilgan. Mamlakatimiz huquqshunoslik nazariyotchilari va amaliyotchilari Sh.O‘razayev, M.Sharifxo‘jayev, A.Azizxo‘jayev, Z.Islamov, M.Fayziyev, O.Husanov, N.Jo‘rayev, M.Qirg‘izboyev va boshqa olimlarimiz tomonidan huquqiy davlatning qirralari, mazmun-mohiyati ochib berilgan, bundan tashqari huquqiy davlat haqidagi ta‘limot O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov va yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev asarlarida ham o‘z ifodasini topgan.

Huquqiy davlat huquq va qonunning ustunligi, qonun va sud oldida barchaning tengligi ta‘minlanadigan, fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlangan, davlat hokimiyati vakolatlari taqsimlash asosida tashkil etiladigan adolatli davlat sifatida ta‘riflanadi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Oliy Kengashning o‘n birinchi sessiyasida (1992-yil 8-dekabr) shunday deb ta‘kidlaganlar: *“Huquqiy davlatning asosiy belgisi – barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi ta‘minlanishidir. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi prinsipi shuni anglatadiki, bunda barcha qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va unga muvofiq bo‘lishi talab etiladi. Ulug‘ bobokalonimiz Amir Temur aytganidek, “qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo‘ladi”* [1, B.38-39]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida *“Mamlakatimiz taraqqiyotini yangi pog‘onaga olib chiqish uchun boshqaruv ham, qonunchilik ham, jamiyatimiz ham o‘zgarishi kerak. Agar shunday qilmasak, muammolarni ko‘rib, ko‘rmaslikka olsak, zamondan orqada qolamiz... Shu bois, “Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat”* degan g‘oyani Konstitutsiyamiz va qonunlarimizga ham, kundalik hayotimizga ham chuqur singdirishimiz kerak... [2] – deb ta‘kidladilar.

Respublikamizda demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lida demokratik islohotlarni yanada jadallashtirish maqsadida, Qonun ustuvorligini ta‘minlash bilan bog‘liq vazifalar *“2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”* [3] (*II-yo‘nalish Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari*), *“2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”* [4] (*II-yo‘nalish Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish*) va har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom,



bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida qabul qilingan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi [5] (*IV-yo'nalish: Strategiyada 16 ta maqsad aynan qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etishga yo'naltirilgan. Bunda "Xabeas korpus" institutini to'laqonli jorish etish muhim vazifa sifatida e'tirof etilgan*)da muhim masalalardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Shu o'rinda "O'zbekiston — 2030" strategiyasida Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlashni sud-huquq islohotlarining bosh mezoniga aylantirish kerak ekanligi belgilab qo'yildi. Ulardagi ustuvor yo'nalishlarda belgilab qo'yilgan vazifalarni amalga oshirilishi, mamlakatimizda qonun ustuvorligiga, inson huquq va erkinliklarini ta'minlanishiga, iqtisodiyotni rivojlanishiga, aholi turli qatlamlari turmush tarzining yuksalishiga hamda respublikamizni demokratik huquqiy davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'RQ-682-son Qonunida ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Qonunchilik tizimi iyerarxiyasida birinchi bog'onada turadi, shu nuqtai nazardan Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega va O'zbekiston Respublikasining butun hududida qo'llanilishi, shuningdek, qonunosti hujjatlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Qonunlar asosida va uni ijro etish maqsadida qabul qilinishi belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, 2023-yil 30-aprelda bo'lib o'tgan umumxalq muhokamasida aholining 90,21 foizi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi taxriri maqullandi va Konstitutsiyasining 1-moddasida O'zbekiston huquqiy davlat ekanligi belgilab qo'yildi [6]. Shu ma'noda qonun ustuvorligi asosiy prinsiplar bo'limida alohida bob sifatida kiritilganligi mamlakatimizda Konstitutsiya va Qonunlarga alohida ahamiyat berilganligidan dalolatdir. Konstitutsiya va qonun ustuvorligining ta'minlanishi huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri bo'lib, u O'zbekistonda huquqiy davlat qurilishining eng asosiy prinsipidir. **Huquqiy davlatning prinsiplari deganda** huquqiy davlatni tashkil etish va uning faoliyatini amalga oshirishning rahbariy boshlang'ich, asosiy qoidalari tushuniladi. Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash amalga oshirilayotgan barcha islohotlar samaradorligiga erishish, aholi turmush darajasini oshirish, mamlakatda tinchlik, totuvlik va barqaror vaziyatni ta'minlashning asosiy kafolatidir.

Bu sohada mavjud asoslarni tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining III bobi "Konstitutsiya va qonunning ustunligi", deb nomlanib, unda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etishi belgilab qo'yilgan. 15-moddaga ko'ra agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro



shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo‘llaniladi [7], bu orqali esa huquq ustunligi konsepsiyasining xalqaro huquqning milliy huquqqa nisbatan ustuvorligi prinsipi namoyon bo‘ladi. 1979-yil 17-sentabrda qabul qilingan AQSH Konstitutsiyasining 6-moddasi [8], Qozog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi 4-moddasi [9], Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi 15-moddasida ham Konstitutsiya va qonunlar ustunligi belgilanib, inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlariga daxldor har qanday normativ-huquqiy hujjatlar, agar ular umumiy ma’lumot uchun rasman e’lon qilinmasa, qo‘llanilishi mumkin emasligi belgilangan [10]. Dunyo mamlakatlarning Asosiy Qonunida bu kabi normalarning mavjudligi huquq va qonun ustuvorligini ta’minlash uchun muhim omil hisoblanadi.

Huquq ustunligi davlat va uning mansabdor shaxslarining, davlat organlarining, fuqarolar va ularning turli tuzilmalarining faoliyati huquq bilan bog‘liqligi, huquqqa mos holda amalga oshirilishidir. Huquq ustunligini ta’minlash avvalo shaxs, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlari muhofazasini kuchaytirishda, aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda, fuqarolarni qonunga bo‘ysunish va hurmat ruhida tarbiyalashda muhim vosita bo‘lib, u chinakam demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishning sharti hisoblanadi. Xususan, jamiyatda huquq ustuvorligini ta’minlash borasida AQSHning Vashington shahrida joylashgan dunyo bo‘yicha davlatlarning huquq ustuvorligini aniqlovchi Huquq ustuvorligi indeksi (Rule of Law Index) mavjud bo‘lib, u 8 ta indikatorlarni o‘z ichiga oladi. 2022-yilda huquq ustuvorligi faqatgina 54 ta davlatda yaxshilandi, 85 tasida yomonlashdi va 1 ta davlatda o‘zgarishsiz qoldi. Ushbu indeksda O‘zbekiston Respublikasi 2021-yil 14-oktyabrda 139 ta mamlakatdan 85-o‘rinni egalagan bo‘lsa, 2022-yil 20-oktabrda e’lon qilingan Huquq ustuvorligi indeksi reytingining natijalariga ko‘ra 140 davlat ichida 78-o‘rinda qayd etildi [11]. Bu esa mamlakatimizda yildan yilga qonuniylik va huquq ustunligini ta’minlash borasida tizimli islohotlar amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

Huquq ustuvorligi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari chiqarayotgan normativ hujjatlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning xatti-harakatlari faqat va faqat Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo‘lishi shart ekanligidir. Konstitutsiya va qonunlar jamiyat hayotining barcha sohalarini qamram oladigan eng muhim huquqiy hujjatlar ekanligidan kelib chiqilsa, huquq ustuvorligini ta’minlash jarayonida ularni o‘rganish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Barcha fuqarolarning qonun oldidagi huquqiy tengligini va qonunning ustunligini, jamiyat manfaatlari himoya qilinishi va aholining xavfsizligini kafolatlaydigan huquqiy davlatni barpo etish, qonuniylik va huquq-tartibot tantana qilmasa, shaxsning huquqlari va erkinliklari, qattiq intizom, ichki uyushqoqlik va mas’uliyat ustuvor bo‘lmasa, qonunlar va an’analar hurmat qilinmasa, huquqiy davlatni tasavvur etib bo‘lmaydi” [1,



B.45], Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev “*Qonun ustuvorligini ta’minlashda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarning qonunga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi*” [12, B.10] deb qonuniylikning ahamiyatini aniq ko’rsatib berganlar.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash biz bunyod etayotgan demokratik huquqiy davlatning bosh mezonini hisoblanadi. Har qanday demokratik islohotlar samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham Konstitutsiya va qonun ustuvorligi ta’minlanishi bilan bevosita bog’liq [13]. Zero, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majbur ekanligi Konstitutsiyaviy burchi sifatida belgilangan. Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi jamiyatda fuqarolarning tengligi, inson huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyalanişini mustahkam garovidir. Agar qonun ustuvorligi ta’minlanmasa jamiyatda qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik, tenglik prinsip qoidalari buziladi va albatta bu odamlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksalishiga to’siq bo’luvchi salbiy hodisalardan biri huquqiy negilizm, odamlarning huquqqa mensimay munosabatda bo’lishiga olib keladi, Qonun ustuvorligi ta’minlanmagan jamiyatda taraqqiyot yuksalmaydi, huquqiy islohotlar ham samara bermaydi.

Bunday salbiy oqibatlarining oldini olish uchun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to’liq amalga oshirish borasida samarali ishlarni amalga oshirish, fuqarolarni, ayniqsa yosh avlodni Konstitutsiya va Qonunlarga itoatkorlik ruhida tarbiyalash uchun ommaviy axborot vositalarining huquqiy targ’ibot sohasidagi faoliyatini takomillashtirish, aholini huquqiy ongini va madaniyatini oshirishga qaratilgan filmlar, video roliklar ishlab chiqish, huquqbuzarlik va jinoyatlarning salbiy oqibatlari to’g’risida teleko’rsatuvlar, tok-shoular tayyorlash, yoshlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish maqsadida loyihalar, yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan o’quv materiallari tayyorlanishini tashkil qilish lozim.

Bundan tashqari maktabda huquqiy dars soatlarini oshirish, o’quvchilarda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish uchun avvalo huquqiy fanlardan dars beruvchi professional pedagog kadrlarni yetishtirib chiqish, bunda, Oliy ta’lim muassasalarida huquq ta’limi yo’nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun zamon talablariga va xalqaro standartlarga mos o’quv dasturlari asosida ta’lim berish tizimini yo’lga qo’yish, oliy ta’lim kesimida ham huquqiy fanlar sonini ko’paytirish, huquqiy mavzular bo’yicha ta’lim beruvchi pedagog-o’qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Иқтибослар/Сноски/References:

1. Каримов И.А. Ўзбекистон – келажак буюк давлат. – Т., 1992.
2. О‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // URL: <https://president.uz/oz/lists/view/5774>;



3. 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi // URL: <https://lex.uz/acts/-3107036>;
4. 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi // URL: <https://lex.uz/docs/-5841063>;
5. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi // URL: <https://lex.uz/docs/-6600413>;
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 14.03.2023 yildagi “2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumining yakunlari to‘g‘risida”gi SQ-702-IV-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-6449095>;
7. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan) // URL: <https://lex.uz/docs/6445145>;
8. Конституция США принята 17 сентября 1787 года // URL: <https://constitutioncenter.org/media/files/RU-Constitution.pdf>;
9. Конституция Республики Казахстан // URL: https://www.akorda.kz/ru/official_documents/constitution;
10. Конституция Российской Федерации // URL: <http://www.constitution.ru/>;
11. Huquq ustuvorligi indeksi // URL: <https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/global/2022>;
12. Sh.Mirziyoyev. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” T.: “O‘zbekiston”. 2017.
13. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yillik bayramida so‘zlagan nutqi // <https://president.uz/uz/lists/view/5753>.